O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY HAYOTDAGI O’RNI VA YOSH AVLOD ONGIDAGI TA’SIRI

Chimanov Azimjon Shuxratovich
Magistr
Guliston davlat pedagogika instituti
Soyibjonova Zaxrohon Doniyorbek qizi
Talaba
Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining tarixiy rivojlanishi, uning ijtimoiy hayotdagi rolini tahlil qilish orqali, tilning davlat boshqaruvi, ta’lim, ommaviy axborot vositalari va yoshlar ongidagi ta’siri ko‘rib chiqiladi. Metod sifatida kuzatuv, tahlil va taqqoslash usullari qo‘llanildi. Natijalardan ma’lum bo‘lishicha, til faqat muloqot vositasi emas, balki millatning madaniy va ma’naviy yuzidir. Maqolada yoshlar orasida til madaniyatini shakllantirishga doir taklif va mulohazalar ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, davlat tili, til madaniyati, ta’lim, yoshlar, ijtimoiy hayot, milliy o‘zlik, til bayrami.

Har bir millatning milliy o‘zligini belgilab beruvchi eng muhim omillardan biri -bu uning ona tilidir. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, an’anasi va hayotiy qarashlarini o‘z ichiga olgan boy ma’naviy meros hisoblanadi. O‘zbek tili -buyuk o‘tmishga ega, ildizlari chuqur tarixga borib taqaladigan tillardan biri bo‘lib, 1989 yil 21 oktyabrda "O‘zbek tilining davlat tili sifatida" e’tirof etilishi orqali uning maqomi yanada yuksak pog‘onaga ko‘tarildi. Ushbu maqolada tilning ijtimoiy hayotdagi roli, yoshlar ongidagi o‘rni, ta’lim va axborot makonidagi mavqei, shuningdek, uni rivojlantirishga oid amaliy choralar tahlil qilinadi.

Til har qanday jamiyatning madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo‘lgan til -xalqning boshqaruv, ta’lim, fan va ommaviy axborot tizimlaridagi birdamligini ta’minlovchi asosiy vositadir. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda davlat tilini rivojlantirish, uning nufuzi va qo‘llanish doirasini kengaytirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari asrida o‘z ona tilini asrash va uni yanada rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Tillararo raqobat kuchaygan bir sharoitda o‘zbek tili o‘z mavqeini saqlab qolish, yosh avlod ongi va ijtimoiy ongda barqaror o‘rin egallashi uchun yangicha yondashuvlarni, ilmiy asoslangan til siyosatini talab qiladi.

Mazkur maqolada o‘zbek tilining bugungi kundagi holati, uni o‘rganish va qo‘llashdagi muammolar va imkoniyatlar, shuningdek, yoshlarda ona tiliga nisbatan mas’uliyatni shakllantirish yo‘llari ilmiy tahlil etiladi.

Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilining ijtimoiy hayotdagi o‘rni, ta’lim tizimidagi mavqei va yoshlar ongidagi ta’sirini o‘rganish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy metodlardan foydalanildi:

1. Kuzatuv usuli: O‘zbek tilining jamiyatdagi qo‘llanilish holatlarini tahlil qilishda birinchi navbatda tabiiy va maqsadli kuzatuv olib borildi. Davlat idoralari, ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalarida tildan foydalanish ko‘lami kuzatildi. Maktablarda o‘tkazilgan til bayrami tadbirlari, kitobxonlik kechalari va tanlovlar orqali yoshlar ongida tilga bo‘lgan munosabatni kuzatish imkoni paydo bo‘ldi. Ijtimoiy tarmoqlarda (Telegram, Instagram, YouTube) o‘zbek tilidagi kontentlarning tarqalishi va foydalanuvchilar munosabati kuzatildi.

2. Tahlil va kontent tahlili: O‘rganilayotgan mavzu doirasidagi turli materiallar, qonun hujjatlari, dunyoqarashni shakllantiruvchi ommaviy nutqlar, ta’lim dasturlari va mediamatnlar tahlil qilindi: “Davlat tili haqida”gi qonun, Prezident farmonlari va konsepsiya hujjatlari o‘rganildi. Ta’lim muassasalaridagi “O‘zbek tili” fanidan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar kontent tahliliga tortilib, ulardagi lingvistik yundalishlar, tarbiyaviy jihatlar va til madaniyati elementlari o‘rganildi.

Blogerlar va ommaviy axborot vositalari orqali tarqalgan tildagi nutq (mulohazalar, videolar) mazmun va uslub jihatidan tahlil qilindi.

3. So‘rovnoma va intervyular (fokus guruh shaklida): Tadqiqotning amaliy qismida o‘quvchi va talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. Savollar asosan tilga munosabat, uning foydalanish doirasi va kelajagi haqidagi fikrlarga qaratildi. 50 nafar 10–11-sinf o‘quvchilari va 30 nafar talabalar ishtirokida so‘rovnoma o‘tkazildi. Quyidagi savollarga javob olindi:

O‘zbek tilida fikr yuritish darajasi qanday?

Sizningcha, til qanday sohalarda keng qo‘llanilmoqda?

Televideniye va internetda o‘zbek tili kontentiga bo‘lgan munosabatingiz?

O‘zbek tili kelajagi haqida fikringiz?

Shuningdek, ikki nafar ona tili o‘qituvchisi va bir tilshunos olim bilan qo‘shimcha intervyular tashkil etildi.

4. Qiyosiy tahlil usuli: O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi qo‘llanish darajasi boshqa davlatlar -xususan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya kabi mamlakatlarda davlat tilining rivojlanishi bilan taqqoslandi. Bu qiyosiy yondashuv o‘zbek tilining istiqbolini baholashga yordam berdi.

5. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish: Mavzuga oid ilmiy va metodik adabiyotlar -tilshunoslik, ijtimoiy lingvistika, sosiologiya, ta’lim metodikasiga oid risolalar o‘rganildi. Xususan, tilning ijtimoiy funksiyalari, yoshlarda milliy o‘zlikni shakllantirishdagi roli bo‘yicha ilmiy qarashlar tahlil etildi.

Yuqoridagi natijalar asosida tilning ijtimoiy hayotdagi mavqeini yanada mustahkamlash uchun quyidagi masalalar muhokama qilindi: Til siyosatini takomillashtirish: davlat hujjatlari va ta’lim materiallarining barcha sohalarda to‘liq o‘zbek tilida yuritilishini ta’minlash muhim. Til madaniyatini oshirish: maktab va oliygohlarda tilga oid fanlarni faqat grammatika emas, balki jonli muloqot, ijodiy yozish, nutq madaniyati asosida o‘qitish zarur. Media savodxonligi va til: blogerlar, jurnalistlar va kontent yaratuvchilar uchun til madaniyati bo‘yicha o‘quv kurslari joriy etish taklif etiladi.

Yoshlar uchun motivatsiya yaratish: tilda yaxshi gapiradigan, toza yozadigan yoshlarga rag‘bat sifatida tanlovlar, stipendiyalar, media imkoniyatlar berish. Shevaviy nutq muammosi: har bir hududning o‘ziga xosligi inobatga olingan holda, adabiy til qoidalariga e’tiborni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, 2019.
2. “Davlat tili haqida”gi Qonun. -1989 yil 21 oktyabr.
3. Prezident farmoni: “O‘zbek tilining davlat tili sifatida to‘liq joriy etilishini ta’minlash to‘g‘risida”. -21.10.2019.
4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat -yengilmas kuch”. -T.: Ma’naviyat, 2008.
5. “Ona tili va adabiyot” jurnali, 2020–2024 yillar.
6. Qodirov Sh. “O‘zbek tilining ijtimoiy lingvistikasi”. -T.: Fan, 2017.